

**Xalqaro Nordik Universiteti “Iqtisodiyot va pedagogika fakulteti” da “BIZ ZO‘RAVONLIKKA QARSHIMIZ” va “KORRUPSIYA- TARQQIYOT KUSHANDASI” shiori ostida davra suhbat**

**HISOBOTI**

Xalqaro Nordik Universitetida “BIZ ZO‘RAVONLIKKA QARSHIMIZ” va “KORRUPSIYA- TARQQIYOT KUSHANDASI” shiori ostida davra suhbat bo‘lib o‘tdi. "BIZ ZO‘RAVONLIKKA QARSHIMIZ" shiori ostida o‘tkaziladigan davra suhbat — bu juda muhim va zaruriy tadbir. Bunday suhbatlar orqali zo‘ravonlikka qarshi kurashish, odamlarni xabardor qilish va ijtimoiy mas'uliyatni oshirish maqsadida birlashish mumkin. Ayol ojiza, biroq kuchli, ayol zaifa, ammo irodali! Uning irodasi oldida lozim bo‘lsa buyuklar bosh egadi. Azaldan erkaklar himoyasida bo‘lgan sharq ayollarining qadr-qimmatini hamisha e'zoz-u, e'tirof etilgan. Biroq so‘nggi paytlarda xotin-qizlarni kuchli jins vakillari tomonidan qadsizlantirish, ularga tazyiq o‘tkazish, zo‘ravonlik qilish holatlari ham afsuski ko‘plab kuzatilmoqda. Bunday salbiy holatlarning oldini olish maqsadida Xalqaro Nordik universitetida davra suhbat tashkil etildi. Hamda Korrupsiyaga yo‘q deymiz mavzusida ham davra suhbat o‘tkazildi. “KORRUPSIYA - TARQQIYOT KUSHANDASI” shiori ostida o‘tkaziladigan davra suhbat, korrupsiyaning jamiyat va davlat rivojiga ta'siri haqida muhokama olib borish uchun ajoyib imkoniyatdir. Davra suhbat davomida ishtirokchilarni faol ishtirok etishga undash, ularning fikrlarini hurmat qilish va muhokama jarayonini ochiq holda olib borish muhimdir. Bu kabi tadbirlar korrupsiyaga qarshi kurashishda ijtimoiy ongni oshirishga yordam beradi. Buni talabalar mavzu muhokamasi, taqdimotlar va rasmlarda keng ifoda qilib berdilar.



**Tyutor:**

**V.T.Abidjanova**

